

## “SO‘NGGI SABOQ” HIKOYASINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Botirova Nigora Nurulla qizi,**  
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*  
*2-bosqich tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alfons Dode qalamiga mansub “So‘nggi saboq” hikoyasini o‘qitishda interfaol va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi yoritiladi. Asarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ona tiliga hurmat, vatanparvarlik tuyg‘usi hamda bilimga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars samaradorligini oshirish uchun brainstorming, rolli o‘yin, “Men kimman?” kabi metodlardan foydalanishning didaktik ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interfaol metodlar hikoyaning mazmunini chuqurroq anglashga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga va adabiy matnni hayotiy tajriba bilan bog‘lab talqin qilishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** “So‘nggi saboq”, badiiy asar tahlili, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ona tiliga hurmat, vatanparvarlik, o‘qib tushunish.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы применения интерактивных и современных педагогических технологий при изучении рассказа «Последний урок» французского писателя Alphonse Daudet. Особое внимание уделяется формированию у учащихся уважения к родному языку, патриотических чувств и осознания ценности образования. В работе анализируются возможности использования таких методов, как мозговой штурм, ролевая игра и метод «Кто я?», которые способствуют активизации познавательной деятельности учащихся. Отмечается, что применение интерактивных технологий помогает глубже понять художественный текст, развивает самостоятельное мышление школьников и усиливает воспитательный потенциал произведения.

**Ключевые слова:** «Последний урок», анализ художественного произведения, интерактивные методы, современные педагогические технологии, уважение к родному языку, патриотизм, понимание текста.

**Annotation.** This article examines the use of interactive and modern pedagogical technologies in teaching “The Last Lesson” by Alphonse Daudet. The study focuses on developing students’ respect for their mother tongue, patriotic feelings, and responsible attitudes toward education through literary analysis. The article highlights the effectiveness of methods such as brainstorming, role-playing, and the “Who am I?” activity in engaging students and enhancing their comprehension of the literary text. The findings suggest that interactive teaching approaches help students better understand the story, encourage critical thinking, and strengthen the educational and moral value of the literary work.

**Keywords:** “The Last Lesson”, literary text analysis, interactive methods, modern pedagogical technologies, respect for the mother tongue, patriotism, reading comprehension.

**Kirish.** Adabiyot darslari nafaqat badiiy matnni o‘qish, balki o‘quvchini fikrlashga, his etishga va voqelikni chuqur anglashga o‘rgatadigan muhim ta’lim jarayonidir. Ayniqsa, badiiy asarlarni o‘rganishda o‘quvchining faolligi, uning matn bilan bevosita muloqotga kirishishi katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, dars jarayonida an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadigan zamonaviy pedagogik yondashuvlarga murojaat qilish zarur bo‘ladi. Chunki bugungi o‘quvchi faqat tinglovchi emas, balki o‘z fikrini bildiradigan, savol beradigan va muhokamada qatnashadigan shaxs sifatida shakllanishi lozim.

“So‘nggi saboq” hikoyasi ham mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishi bilan o‘quvchilarda chuqur taassurot qoldira oladigan asarlardan biridir [1:47]. Hikoyada ona tiliga bo‘lgan hurmat, milliy qadriyatlar va insonning o‘z yurtiga sadoqati kabi muhim masalalar badiiy ifodasini topgan. Bunday asarni o‘rganishda o‘quvchilarning faqat matn mazmunini bilishi yetarli emas; ular asardagi ruhiy holatlarni, qahramonlarning kechinmalarini va muallif ilgari surgan g‘oyani ham his qila olishlari kerak. Aynan shu jarayonda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar darsning samaradorligini oshiradi, o‘quvchini faol fikrlashga undaydi. Adabiyot — bu shunchaki matnlar yoki hikoyalar yig‘indisi emas. U o‘quvchini o‘ylashga, his qilishga va hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydigan bir olamdir. O‘quvchi badiiy asarni o‘qir ekan, u faqat voqeani bilib qolmaydi, balki qahramonlar bilan birga quvonadi, qayg‘uradi, ularning ichki kechinmalarini his qiladi. Shu jarayonda inson qalbida ko‘plab savollar tug‘iladi, hayot haqidagi tasavvurlari asta-sekin kengaya boradi.

Adabiyot o‘quvchiga insoniylikni anglatadi. Asarlarda tasvirlangan turli taqdirlar, murakkab hayotiy vaziyatlar orqali o‘quvchi yaxshilik va yomonlikning asl mohiyatini chuqurroq tushunib boradi. Ba‘zan bitta hikoya yoki she‘r ham odamni uzoq o‘ylantirib qo‘yadi, qalbida qandaydir sezilmas o‘zgarish uyg‘otadi. Shuning uchun ham adabiyot insonni faqat bilim bilan emas, balki ruhiy va ma‘naviy jihatdan ham boyitadi. Yana bir jihati shundaki, badiiy asar o‘quvchining fikrlashini uyg‘otadi. U matnни o‘qir ekan, voqealarni tasavvur qiladi, qahramonlarning harakatiga baho beradi, ba‘zan esa o‘zicha xulosa chiqaradi. Bu jarayon o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z qarashlarini shakllantirishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, adabiyot tilning go‘zalligini his qilishga ham yordam beradi. Har bir obraz, har bir ibora o‘quvchining nutqini boyitadi, so‘zning qadrini his etishga o‘rgatadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Adabiyot darslarida badiiy asarlarni o‘qitish masalasi pedagogika va adabiyot metodikasi sohasida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, hikoya janridagi asarlarni o‘qitishda o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, matnни chuqur anglash hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. “So‘nggi saboq” hikoyasini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasini o‘rganishda adabiyot ta‘limi metodikasiga oid ilmiy manbalar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyot ta‘limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda badiiy asarlarni o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, Qudrat Yo‘ldoshev o‘zining adabiyot o‘qitish metodikasiga oid ilmiy ishlarida badiiy matn ustida ishlashning samarali usullarini ishlab chiqqan [7:300]. Olimning ta‘kidlashicha, adabiyot darslarida asarni shunchaki o‘qish emas, balki uning g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi hamda badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish muhimdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Adabiyot ta'limi jarayonini takomillashtirish masalasi Boqijon To'xliyevning ilmiy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan [5:201]. Olim adabiyot darslarida badiiy asarni o'rganishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, asar tahlili jarayonida savol-javob, munozara, ijodiy topshiriqlar kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning matnni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi pedagog olim Nizomiddin Saidahmedovning ilmiy ishlarida ham muhim o'rin tutadi [3:65]. Olim ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish o'quvchilarning faolligini oshirishi, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qilishga, muammoni tahlil qilishga hamda turli qarashlarni solishtirishga o'rganadilar. Badiiy asarni o'qitishda o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Adabiyot darslarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalasi Baxrom Normurodovning ilmiy ishlari va metodik tavsiyalarida ham yoritilgan [2:87]. Tadqiqotlarda adabiyot darslarida klaster, aqliy hujum, bahs-munozara, insert kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. "So'nggi saboq" hikoyasi o'zida chuqur ma'naviy-axloqiy g'oyalarni mujassam etgan badiiy asarlardan biridir. Asarda ustoz va shogird munosabati, ilmga bo'lgan hurmat, insoniy fazilatlarining qadri badiiy ifoda topgan. Shu sababli mazkur asarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning asar mazmunini chuqur anglashiga, qahramonlar xarakterini tahlil qilishiga hamda hayotiy xulosalar chiqarishiga yordam beradi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarida badiiy asarlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etilgan dars jarayoni o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirib, ularning badiiy tafakkuri va o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda "So'nggi saboq" hikoyasini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, adabiyotshunoslik va pedagogika sohasidagi ilmiy manbalar o'rganilib, ularning nazariy qarashlari umumlashtirildi. Hikoyani o'qitish jarayonida interfaol metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida dars jarayonlari tahlil qilindi. O'quvchilarning matnni anglash darajasi hamda fikrlash faolligini aniqlash uchun savol-javob va muammoli topshiriqlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar tahlil qilinib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning adabiyot darslaridagi ahamiyati asoslab berildi. Natijada "So'nggi saboq" hikoyasini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan yoritildi.

**Natijalar.** Adabiyot o‘quvchiga faqat bilim bermaydi — u inson qalbini tarbiyalaydi, tafakkurini kengaytiradi va hayotga nisbatan yanada teranroq qarashni o‘rgatadi. Balki shuning uchun ham yaxshi o‘qilgan bitta asar ba‘zan inson xotirasida uzoq vaqt yashaydi va hayot yo‘lida unga hamroh bo‘lib qoladi.

Ustoz biror bir asarni shunchhaki gapirib tahlil qilib bermasligi kerak. Rossiyalik olim G. Taranosova nazarida: “...tahlil adabiy asarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va jo‘n tushunish o‘rniga uni fikran ma‘noli qism va unsurlarga bo‘lib qabul etishni ko‘zda tutadigan ilmiy faoliyatdir” [4:145].

Alfons Dode — fransuz yozuvchisi va jurnalist bo‘lib, asosan hayotiy voqealarni oddiy, sodda tilda hikoya qilishga e‘tibor qaratgan. U insoniy tuyg‘ular, bolalik va maktab hayoti, odatiy vaziyatlarni badiiy tarzda tasvirlash bilan mashhur. Alfons Dode asarlari o‘quvchi uchun oson tushunarli bo‘lib, tarbiyaviy va ma‘naviy jihatdan boy g‘oyaga ega. “So‘nggi saboq” ijodkorning mashhur hikoyalardan biri bo‘lib, asosiy g‘oyasi ona tiliga bo‘lgan hurmat, milliy o‘zlik va vatanparvarlik [1:47]. Hikoyada o‘qituvchi maktabdagi oxirgi darsini o‘tayotgan paytda o‘quvchilarga tilning qadri, mustaqillik va insoniy fazilatlarining ahamiyatini yoritadi. Asarda o‘quvchilar bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot orqali ma‘naviy tarbiya, vatanparvarlik va madaniy qadriyatlar ochib beriladi. Hikoya qisqa, sodda tilda yozilgan, ammo mazmuni chuqur va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu sababli u maktab darslarida, ayniqsa ona tili va adabiyot darslarida tez-tez o‘qitiladi. O‘quvchilarga badiiy matnni o‘qitishda eng muhim narsa — ularni faqat tinglovchi sifatida qoldirmaslik, balki matn bilan faol muloqotga kirishtirishdir. Alfons Dode hikoyalari va “So‘nggi saboq” hikoyasi aynan shunday imkoniyat yaratadi. Ularning mazmuni sodda, ammo ruhiy-axloqiy jihatdan chuqur bo‘lib, o‘quvchilarni tafakkurga, tasavvurni ishga solishga va o‘z fikrini ifodalashga undaydi. Ustoz hikoya bilan tanishtirib chiqqandan keyin o‘quvchilarga kichik shart berish orqali ularni ijodiy fikrlashlarini o‘stirishi, harakat qilishga undashi mumkin. “ Til va millat birligi” mavzusida kichik ijodiy insho yozish orqalu talabalarda ruhiy intellekt yuzaga chiqadi.



*1-chizma: hikoya o‘qitish metodi.*

Ushbu metod o'quvchilarning ham yozma ham og'zaki nutqini shakllantirish va hikoya qahramonari bilan birga yashashlari uchun imkon beradi.

“So‘nggi saboq” hikoyasini o‘qitishda “Meni Top ” metodi ham yaxshi samara beradi. Bu metod o‘quvchilarda hikoyadagi qahramonlarni eslab qolishni yaxshilash, ularning xarakterini chuqurroq anglash va darsni jonli, interfaol qilishga xizmat qiladi. U o‘quvchilarni faqat tinglovchi sifatida qoldirmaydi, balki ular o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lib, tafakkur qilish, tezkor qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘yin jarayonida bir o‘quvchi sinfdoshlariga qaramay turadi. Qolgan o‘quvchilar esa bitta qahramonga xos qisqa so‘z yoki ishora bilan ishora qiladilar. Masalan, bu so‘zlar qahramonning kasbi, xarakteri, qilgan ishlaridan yoki voqealardagi muhim harakatlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Tanlagan o‘quvchi esa ushbu ishoralarni birlashtirib, qahramonni aniqlashga harakat qiladi. O‘yin davomida qahramonni topish jarayoni nafaqat qiziqarli, balki o‘quvchilarni diqqatini jamlashga, tafakkur qilishga va voqealarni yaxshiroq eslab qolishga undaydi. Tanlangan qahramonni aniqlagach, o‘quvchi uning xarakteri, qilgan ishlarini va hikoyadagi rolini sinfdoshlariga qisqacha tushuntiradi. Shu bilan ular hikoyadagi qahramonlarning fe‘l-atvori, fazilatlarini va voqealardagi ahamiyatini chuqurroq anglaydilar. Metodning yana bir foydali jihati shundaki, u darsni interfaol va ijodiy qiladi, o‘quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, fikrlarini erkin ifodalaydi va o‘zaro hurmat ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar ona tilining qadri, hikoyaning ma‘nosi va voqealarning mazmunini o‘zlashtiradi, dars jarayoniga faol va hissiy tarzda bog‘lanadi. Bu metod, ayniqsa, **“So‘nggi saboq” hikoyasi kabi o‘quvchi tafakkurini uyg‘otadigan va ma‘naviy qadriyatlarni o‘rgatuvchi asarlar** bilan ishlaganda samarali bo‘ladi. U nafaqat qahramonlarni eslab qolishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarda ona tiliga hurmat, vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Hikoyani fanlararo integratsiya asosida tahlil qilish darsni oddiy matn o‘qish jarayonidan ko‘ra kengroq va mazmunliroq qiladi. Bunday yondashuv o‘quvchiga asarni faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki hayot bilan, tarix bilan, til va ma‘naviyat bilan bog‘liq holda tushunishga yordam beradi. Aslida, adabiyotning eng katta kuchi ham shunda — u boshqa bilim sohalari bilan tutashib, inson tafakkurini boyitadi. Shu sababli hikoyani o‘qitishda turli fanlar bilan bog‘lab tahlil qilish o‘quvchilarda asarga nisbatan yanada chuqur qiziqish uyg‘otadi. Avvalo, hikoya ona tili va adabiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. O‘quvchilar matnni o‘qib, undagi voqealar rivojini kuzatadilar, qahramonlarning fe‘l-atvori, ichki kechinmalari va muallifning ularga bo‘lgan munosabatini anglashga harakat qiladilar. Asarda ishlatilgan badiiy tasvirlar, obrazli ifodalar, muallifning til mahorati ham alohida e‘tiborga olinadi. Shu jarayonda o‘quvchilar nafaqat asar mazmunini tushunadilar, balki badiiy matnning qanday yaratilishini ham his qila boshlaydilar. Biroq hikoyani chuqurroq anglash uchun uni tarix fani bilan bog‘lash ham juda muhim. Har bir badiiy asar ma‘lum bir davr ruhini o‘zida aks ettiradi. Shuning

uchun hikoyadagi voqealar qaysi tarixiy sharoitda yuz berayotgani haqida qisqacha ma'lumot berish o'quvchilarning tasavvurini boyitadi. O'sha davrdagi siyosiy holat, jamiyatdagi o'zgarishlar yoki xalq hayotidagi muammolar haqida suhbat olib borilsa, o'quvchilar hikoyani yanada aniqroq va jonliroq tasavvur qila boshlaydilar. Bu esa asardagi voqealarning sababini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, hikoya mazmuni ma'naviyat va tarbiya bilan ham chambarchas bog'liq. Adabiyot darslari ko'pincha insoniy qadriyatlar haqida o'ylashga undaydi. Hikoya tahlili jarayonida o'quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning fazilatlari yoki kamchiliklari haqida fikr yuritadilar. Vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, sadoqat kabi tushunchalar tabiiy ravishda muhokama qilinadi. Bunday suhbatlar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ichki dunyosini ham boyitadi.

Fanlararo integratsiya ba'zan geografiya yoki san'at bilan ham uyg'unlashishi mumkin. Agar hikoyada ma'lum bir hudud, tabiat manzarasi yoki milliy an'ana tasvirlangan bo'lsa, o'quvchilar bilan shu haqida suhbat o'tkazish darsni yanada jonlantiradi. Masalan, tasvirlangan joylar xaritada ko'rsatib berilishi yoki tabiat manzaralarini tasavvur qilish uchun rasmlar orqali muhokama qilinishi mumkin. Bu esa o'quvchilarga hikoya muhitini ko'z oldiga keltirishga yordam beradi.

Shu tarzda fanlararo integratsiya asosida olib borilgan tahlil darsni yanada jonli va mazmunli qiladi. O'quvchilar hikoyani shunchaki o'qib chiqish bilan cheklanmaydi, balki uning ortida turgan tarixiy, ma'naviy va madaniy ma'nolarni ham his eta boshlaydi. Natijada adabiyot darsi o'quvchilar uchun faqat bilim beradigan mashg'ulot emas, balki fikrlashga, his qilishga va hayotni chuqurroq anglashga undaydigan jarayonga aylanadi.

“So'nggi saboq” hikoyasi o'quvchilar uchun nafaqat adabiy asar sifatida, balki muhim tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan asar hisoblanadi. Bu hikoya orqali o'quvchilar bir qator foydali xulosalar va hayotiy saboqlarni anglay boshlaydilar. Asarda ona tilining qadr-qimmatini, bilimning ahamiyati va vatanparvarlik tuyg'usi chuqur badiiy ifoda etilganligi sababli u o'quvchi tafakkuri va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, hikoya o'quvchilarga **ona tilining naqadar muhim boylik ekanini** anglatadi. Asarda fransuz tilining o'rniga boshqa til joriy qilinishi haqidagi xabar bolalar va qishloq aholisi uchun og'ir zarba bo'ladi. Shu voqea orqali o'quvchilar til shunchaki muloqot vositasi emasligini, balki xalqning tarixi, madaniyati va milliy o'zligini saqlab turuvchi asosiy qadriyat ekanini tushunib yetadilar. Bu esa o'quvchilarda ona tiliga hurmat va e'tibor tuyg'usini kuchaytiradi. Ikkinchidan, hikoya **bilim olishning qadrini anglashga yordam beradi**. Asar qahramoni Frans dastlab darsga beparvo qaraydi, hatto darsdan qochishni ham o'ylaydi. Biroq so'nggi dars ekanini bilganidan keyin u bilim olish imkoniyatini qadrlamaganidan afsuslanadi. Shu orqali o'quvchilar vaqtda o'qish, bilimni qadrlash va har bir darsning qadriga yetish zarurligini anglaydilar. Yana bir muhim jihati shundaki, hikoya o'quvchilarda **ustozga hurmat va minnatdorlik tuyg'usini shakllantiradi**. Maktabga qishloqning katta yoshli kishilari ham kelib, muallim Amelning

so'nggi darsini tinglashadi. Bu holat ustozning jamiyatdagi o'rni qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. O'quvchilar esa ustoz mehnatini qadrlash, o'qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish zarurligini his qiladilar.

Hikoya **vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi**. Asar oxirida muallim Amel doskaga "Yashasin Fransiya!" deb yozadi. Bu sahna o'quvchilar qalbida vatan va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usini uyg'otadi. Natijada o'quvchilar o'z yurti, tili va madaniyatini asrash muhimligini tushunib yetadilar. Shuningdek, hikoya o'quvchilarga **mas'uliyatli bo'lish va vaqtni qadrlash** kabi hayotiy saboqlarni ham beradi. Asardagi voqealar o'quvchiga shuni anglatadiki, ba'zan inson biror narsaning qadrini uni yo'qotish arafasida bo'lgandagina tushunadi. Shu sababli o'quvchilar o'qish, bilim olish va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish zarurligini anglaydilar. Shu sababli bu asar maktab adabiyot darslarida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy asarlardan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, hikoyani zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish adabiyot darsining mazmunini yanada boyitadi va o'quvchilarning asarga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar, fanlararo integratsiya, ijodiy topshiriqlar va erkin muloqotga asoslangan dars shakllari o'quvchilarni faollikka undaydi. Natijada o'quvchi matnni shunchaki o'qib chiqadigan tinglovchi emas, balki dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. U voqealar ustida o'ylaydi, qahramonlarning ichki dunyosini tushunishga harakat qiladi, asardagi g'oyalarni o'z hayoti va atrofidagi voqelik bilan solishtiradi.

Adabiyot darsi aslida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmaydi. U inson qalbiga ta'sir qiladigan, fikrlashga undaydigan va hayotiy qadriyatlar haqida mushohada yuritishga yordam beradigan muhim ma'naviy maktabdir. Agar o'qituvchi darsni samimiy ruhda, erkin fikr almashish asosida tashkil etsa, o'quvchilar badiiy asarni boshqacha nigoh bilan qabul qila boshlaydi. Hikoyadagi har bir voqea, har bir obraz ularning tasavvurida jonlanadi, ular qahramonlar bilan birga quvonadi, o'ylaydi, ba'zan esa xulosa chiqarishga majbur bo'ladi. Shu jihatdan adabiyot darsi o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ruhiy olamini ham boyitadi. Ayniqsa, "So'nggi saboq" kabi asarlar orqali o'quvchilar ona tilining qadr-qimmatini, milliy o'zlik va vatanparvarlik tuyg'ularining naqadar muhim ekanini yanada chuqurroq anglay boshlaydilar. Bunday asarlar o'quvchilarga til shunchaki muloqot vositasi emasligini, balki xalqning tarixini, madaniyatini va ruhini saqlab turuvchi bebaho boylik ekanini his ettiradi. Shu sababli hikoyani o'qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish, o'quvchilarni fikrlashga undash, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, badiiy asarni yangicha yondashuvlar asosida o'qitish adabiyot darsini yanada jonli va mazmunli qiladi. Bu jarayon o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularda adabiyotga nisbatan samimiy qiziqish uyg'otadi va eng muhimi, ularni o'ylaydigan, his qiladigan, ma'naviy jihatdan boy insonlar bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiyot

darsining asl qiymati ham aynan shunda — u o‘quvchiga nafaqat bilim beradi, balki hayotni chuqurroq his qilishni ham o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alfonse Dode. So‘nggi saboq // Tanlangan hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 45–50-b.
2. Normurodov B. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. – 148 b.
3. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2003. – 192 b.
4. G. Taranosova. Анализ художественного текста в школе. – Москва: Просвещение, 1985. – 160 с.
5. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 304 b.
6. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 256 b.
7. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Adabiyot o‘qitishning nazariy va metodik asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – 320 b.

